

MIRANDA QOIDASI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA QANDAY AKS ETGAN?

Abdurazzaqov Muhamad Amin Xayrullo o'g'li

Po'latova Maftuna Saydulohon qizi

Ergashev Diyorbek Usmonjon o'g'li

Andijon viloyati Yuridik tehnikumi

Davlat Huquqiy Faoliyati 118-guruhan o'quvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada Miranda qoidasining O'zbekiston qonunchiligiga kiritilishi, har bir insonning o'z fikrini emin-erkin ifoda qilishi, burch va mas'uliyatlarini bajarish, jinoyat sodir etishda guman qilinuvchi shaxsni so'roq qilishdan oldin unga protsessual huquqlari tushuntirilishi va boshqalar to'g'risida yozilgan.

Kalit so'zlar: *Miranda, yuridik, jinoyat, protsessual, huquq, tamoyil, qaror, shaxs, guvoh.*

Ma'lumki, qonun va qoidalar insonlar uchun mustahkam huquqiy himoya bo'lib, har bir insonning o'z fikrini emin-erkin ifoda qilishida, o'z haq-huquqlarini talab etishida, hammaning tengligini ta'minlab, burch va mas'uliyatlarini bajarishida bamisoli qalqon bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiyamizga ko'ra, barcha fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

Shu bilan birga, barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Xalqaro huquqda va har bir davlatda inson huquqi va erkinliklari, shaxsning sud va tergov organlaridagi himoyasini mustahkamlashga xizmat qiladigan ko'plab tarixiy hujjatlar qabul qilingan.

Miranda qoidasi Amerika Qo'shma Shtatlarida yuzaga kelgan yuridik norma bo'lib, unga ko'ra, jinoyat sodir etishda guman qilinuvchi shaxsni so'roq qilishdan oldin unga protsessual huquqlari tushuntirilishi kerak. Bu tamoyil 1966 yildagi AQSh Oliy sudi qaroridan kelib chiqadi. Miranda qoidasidan ko'zlangan maqsad shaxsga o'z-o'ziga qarshi guvohlik bermaslik huquqini (*nemo tenetur se ipsum accusare*) berish bo'lgan.

O'sha vaqtida Arizona shtati politsiyasi Ernesto Mirandani odam o'g'irlash va nomusga tegish jinoyatlarini sodir etishda ayblaydi. Politsiya binosida ikki soatlik so'roqdan keyin Miranda o'z aybiga iqror bo'ladi va keyinchalik sudlanadi. Ushbu jinoyat ishi yuzasidan Mirandaning advokati shikoyat keltiradi hamda AQSh Oliy sudi bundan buyon politsiyachilar shaxsni ushlash chog'ida shartli ravishda nom olgan «Miranda ogohlantiruvi»ni o'qib eshittirishlarini talab qiladi. Bu qoida ushlab turish sabablarini, ko'rsatuv berishni rad etish, ushlangan shaxs bergen

ko'rsatuvlardan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini hamda davlat hisobidan himoyachini taklif etish kabi huquqlarni o'z ichiga oladi. Ushbu qoida hech kim o'ziga qarshi ko'rsatuv berishga majbur emasligi huquqini ta'minlab berdi. Shu paytdan boshlab, ushlangan shaxsga uning huquqlari o'qib eshittirilishidan oldin olingen har qanday ma'lumot nomaqbul dalil ekani belgilab qo'yildi.

So'roq davomida qo'lga kiritilgan har qanday ma'lumot, agar u qo'lga olingen shaxsga uning haq-huquqlari tushuntirilishidan avval olingen bo'lsa, noqonuniy olingen dalil deb hisoblanadigan bo'lgan. Bunda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin bo'ldi.

AQShdan o'rnak olib, ko'plab mamlakatlar o'z qonunchiliklarida Miranda qoidasini joriy qilishdi. Xususan, O'zbekiston ham.

Miranda qoidasi O'zbekistonda 2009 yil 1 yanvardan e'tiboran joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to'plami, 2008 yil, № 52, 514-bet).

Miranda qoidasi bo'yicha hibsga olingen shaxsga uni so'roq qilishdan oldin albatta:

- sukut saqlashga haqliligi;
- aytgan gaplari sudda unga qarshi qo'llanishi mumkinligi va qo'llanishi; so'roqda uning advokati ishtirok etishi mumkinligi;
- advokat to'lovini qila olmasa unga davlat tomonidan advokat berilishi tushuntirilishi hamda «haq-huquqlaringiz sizga tushunarlimi?» deb so'ralishi;
- o'z advokatiga yoki yaqinlariga bir marta qo'ng'iroq qilish imkonи berilishi shart.

Miranda qoidasining ahamiyati haqida

- «Siz sukut saqlash huquqiga egasiz. Aytganlaringizning barchasi sizga qarshi sudda ishlatilishi mumkin va ishlatiladi».
- «Siz advokat bilan maslahatlashish huquqiga egasiz. Advokatingiz so'roq paytida ishtirok etishi mumkin».
- «Agar advokatning xizmatlarini to'lashga qodir bo'lmasangiz, u sizga davlat tomonidan taqdim etiladi. Siz ushbu huquqlarni tushundingizmi?»
- «Siz ushbu huquqlarni tushundingizmi?»
- «Qo'ng'iroq qilish huquqiga egasiz!»

So'ngi so'z o'rnida

Kodeksning 46 va 48-moddalariga ko'ra, shaxs, ya'ni ayblanuvchi yoki gumondor o'ziga qo'yilgan ayblov yo gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatuvlar berish yoxud ko'rsatuvlar berishdan bosh tortishga haqlidir. Shuningdek, u ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish huquqiga ega.

Jinoyat-protsessual kodeks jinoyatni gumonlanuvchining «bo'yniga ilish» uchun emas, balki, ayblovchi va himoyalanuvchi manfaatlari o'rtasida hamda jinoyat ishini tez va to'liq surishtirish va gumonlanuvchi (ayblanuvchi, sudlanuvchi) manfaatlari o'rtasida balansni ta'minlovchi qonun hujjatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining matbuot xizmati
2. <https://kun.uz/uz/news/2019/05/26/sukut-saqlash-huquqiga-egasiz-miranda-qoidasi-ozbekiston-qonunchiligidagi-qanday-aks-etgan>
3. <http://pravacheloveka.uz/oz/news/miranda-qoidasi-va-milliy-qonunchilik>